



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI IMPORTINING IQTISODIY TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18089664>

Nurmatov Ulug'bek Islambekovich

Bojxona instituti katta o'qituvchisi,

e-mail: bek.nur2024@mail.ru

ANNOTATSIYA. *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari importining hozirgi holati, tarkibi va iqtisodiyotga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Import hajmining o'sish omillari, mahsulot tuzilmasidagi o'zgarishlar hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi roli yoritilgan. Shuningdek, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning import siyosatiga ta'siri tahlil qilinadi.*

KALIT SO'ZLAR: *qishloq xo'jaligi, import, oziq-ovqat xavfsizligi, iqtisodiy tahlil, tashqi savdo.*

ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИМПОРТА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

АННОТАЦИЯ. *В данной статье проведен научный анализ текущего состояния, структуры и влияния сельскохозяйственного импорта в Республике Узбекистан на экономику. Выделены факторы роста объемов импорта, изменения в структуре продукции и их роль в обеспечении продовольственной безопасности. Также проанализированы проводимые в стране реформы и их влияние на импортную политику.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *сельское хозяйство, импорт, продовольственная безопасность, экономический анализ, внешняя торговля.*

ECONOMIC ANALYSIS OF IMPORTS OF AGRICULTURAL PRODUCTS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ABSTRACT. *This article scientifically analyzes the current state, composition and impact of agricultural imports in the Republic of Uzbekistan on the economy. The factors of growth of import volumes, changes in the product structure and their role in ensuring food security are highlighted. The reforms being implemented in the country and their impact on import policy are also analyzed.*

KEYWORDS: *agriculture, import, food security, economic analysis, foreign trade.*



So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida tub tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilmogda. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi sohasida bozor mexanizmlarini joriy etish, tashqi savdoni liberallashtirish va eksport-import operatsiyalarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etmogda. Aholi sonining o‘shishi, urbanizatsiya jarayonlari va iste‘mol tuzilmasining o‘zgarishi natijasida oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talab ortib bormogda[2].

Mazkur sharoitda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari importi ichki bozorni barqarorlashtirish, narxlar tebranishini

yumshatish va aholi ehtiyojini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli import hajmi, tarkibi va iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari importining holati. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari importi 2,5 mlrd AQSh dollaridan oshgan[1]. Import tarkibida don mahsulotlari, shakar, o‘simlik yog‘lari, go‘sht va meva-sabzavotlar asosiy o‘rinni egallagan(1-jadval).

1-jadval. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlari importi tarkibi (2023-yil).

Mahsulot turi	Import hajmi (mln \$)	Ulushi (%)
Don va un mahsulotlari	760	9,3
Shakar va shakar mahsulotlari	410	5,8
Go‘sht va go‘sht mahsulotlari	365	4,0
O‘simlik yog‘lari	295	1,3
Meva-sabzavotlar	270	0,4
Boshqa mahsulotlar	400	19,2

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, don va un mahsulotlari umumiy importning eng katta ulushini tashkil etmogda. Bu holat ichki ishlab chiqarishning mavsumiyligi va hosildorlik darajasi bilan izohlanadi[3].

Mamlakatda importning iqtisodiy ahamiyatini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari importi

O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun bir nechta muhim vazifalarni bajaradi, ya‘ni:


- ichki bozorni barqaror mahsulotlar bilan ta‘minlash;
- narxlarning keskin oshib ketishini oldini olish;
- oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash;
- sanoat va qayta ishlash tarmoqlarini xom ashyo bilan ta‘minlash.



Shu bilan birga, importning yuqori ulushi ayrim salbiy holatlarni ham yuzaga keltiradi. Jumladan, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligi pasayishi, valyuta chiqimlarining ortishi va tashqi bozorga qaramlik kuchayishi mumkin[4].

O'zbekistonga olib kelinayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini import

geografiyasi va asosiy hamkor davlatlar bilan bugungi kunda katta tovar aylanmasini tashkil qilmoqda. Jumladan, O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlarini asosan Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Braziliya, Ukraina va Xitoydan import qiladi(1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlari importining asosiy hamkor mamlakatlar bo'yicha taqsimoti (2023-yil).

Ushbu diagrammada Rossiya (34 %), Qozog'iston (22 %), Braziliya (15 %), Xitoy (12 %) va boshqa mamlakatlar (17 %) ulushi aks etgan bo'lib, importda Rossiya davlatining hissasi katta ekanligini ko'rish mumkin. Keyingi navbatda Qozog'iston davlatining ulushi yuqori ekanligini ko'ramiz. Bu mamlakatlar bilan savdo aloqalarining rivojlanishi logistika qulayligi va mahsulotlarning nisbatan arzonligi bilan izohlanadi.

Demak, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari importi bilan bog'liq muammolar va istiqbollarni sanab o'tadigan bo'lsak, avvalambor,

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari importiga doir asosiy muammolar quyidagilardan iborat hisoblanadi:

- mamlakatning importga haddan tashqari bog'liqlik darajasi;
- olib kelishda logistika xarajatlarining yuqoriligi;
- import jarayonida sanitariya va fitosanitariya talablariga rioya etilmasligi;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ichki ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligining yetarli emasligi.

Shu bilan birga, mazkur yo'nalishda mamlakatda istiqbolli davlat tomonidan amalga oshirilayotgan agrar islohotlar,



subsidiyalar va investitsiya dasturlari import hajmini bosqichma-bosqich qisqartirish hamda mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan.

Xulosa o'rnida aytib o'tish lozimki, ilmiy tadqiqot tahlillari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari importi iqtisodiy zarurat bo'lib, u aholini oziq-

ovqat bilan ta'minlashda muhim rol o'ynaydi[5]. Biroq uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun importni kamaytirish, ichki ishlab chiqarishni kengaytirish va yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi statistik to'plami*. – Toshkent, 2024.
2. World Bank. *Agriculture and Food Security in Central Asia*. Washington, 2023.
3. FAO. *FAOSTAT Statistical Database*. Rome, 2023.
4. OECD. *Agricultural Policy Monitoring and Evaluation*. Paris, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloq xo'jaligini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari (2020–2024).